

## NOTIQLIK SAN'ATI PSIXOLOGIYASI

Avvalambor notiqlik tarixiga bir nazar tashlasak,notiqlik o'tmish so'z san'atining eng barkamol ommaviy janrlaridan bo'lib,bu san'at musulmon sharqida voizlik deb atalgan. O'rta Osiyo xalqlari,jumladan,o'zbek xalqi IX-XV asrlarda dunyo madaniyati taraqqiyotida oldingi sarflardan biriga ko'tarilgan edi. Umuman,o'rta asrlarda fan va madaniyatni rivojlantirishda Xorazmiy,Abunasr Farobiy,Abu Ali Ibn Sino,Abu Rayhon Beruniy,Navoiy kabi ulug' siymolar katta hissa qo'shganlar. Ular yashagan davrni uyg'onish davri deb ataganlar. Bu davrda ilm fan,adabiyot,san'at,fan va madaniyatning ravnaq topgan yillari bo'ldi. Adabiyot,san'at,fan va madaniyatning targ'ibotchilari bo'lgan bu allomalar voizlik san'atini ham rivojlantirishga muhim hissalarini qo'shganlar. IX-X asrda yashab ijod etgan Abu Nasr Farobiy,Abu Ali Ibn Sinolar faqat zamonlarining ilm-fan bilan chegaralanib qolmay notiq ham bo'lganlar. Notiqlikning rivojlanishi shakllanishiga katta e'tibor berganlar. Kaykovus tomonidan yaratilgan "Qobusnoma" da notiqlik san'ati haqida batafsil to'htalib o'tilgan. Muallif notiqlikni ulug'laydi. Notiqlik juda uzoq tarixga ega,ana shu davr ichida u shakllandi,o'zgardi va kamol topdi. Bu tarixiy jarayon nasldan-naslga meros qolishga arzugulik an'analar qoldirib ketdi. Hatto muallifning ta'kidlaganiga qaraganda,barcha xunarlar ichida so'z xunari buyukroq va u orqali bir qator urf odatlar yetib keldi.

O'rta Osiyoda juda ko'p notiqliklar yetilib chiqdi. Faqat yetishib chiqqan emas,balki ular notiqlik asarlarini yaratib,butun sharqqa mashhur bo'lganlar. Jumladan voiz Mavlono Riyoziyning "Abvodur 3 jinon", Nazviniyning "Ziloli maqol", Voiz Mirvaniyning "Ahsanul ahadis", Muhammad Bobur binni Muhammad Voizning "Hidoyatun tahvim", Mullakalon Voiziy Samarqandiyning "Ravzatul voizin",Qozi O'shiyning "Muxta-hun najjor" asarlari va boshqa bir qator mohir so'z ustalari o'zlarining risolalarini yaratib,notiqlik nazariyasi sohasida ham katta

yutuqlarni qo'lga kiritganlar. Bu san'atning kelib chiqish tarixi ham ancha qiziq.

Shvesar olimi Adam Mesning ma'lumotiga ko'ra ilgari podshohlar xalq oldiga chiqib davlat tizimi o'z siyosati va boshqa mavzularda nutq so'zlab turganlar,ularning nutq matnlarini esa saroy xodimlari, ya'ni devon xodimlari yozib berganlar. Vaqtlar o'tishi bilan bunday ishlarni mahsus so'z ustalariga topshira boshlaganlar. Mavlono Fahriddin Ali Sayfiyning "Latoyifun-tavoyif" asarlarida ta'kidlaganicha Sulton Husayn Bayqaro bir kuni Sherozga shoh Shijo' oldiga rasmiy davlat ishi bilan muzokara olib borish uchun bir vakil yubormoqchi bo'ladi. Arkoni davlati bilan maslahatlashib,Mavlono Irshoddan boshqa munosib kishi topolmaydilar. Xullas,Irshod borib rasmiy ishlarni qasqa vaqt ichida ijobiy hal etadi. Uning mahoratiga qo'il qolgan shoh Shijo' Irshodga javob bermay bir majlis qilib keyin ketishini aytibdi. Notiq majlisni juma kuniga tayinlaydi. Hamma majlisda yig'iladi. O'sha kuni Mavlono Irshod shunday nutq so'zlaydiki,yig'ilgan xaloyiq ho'ng-ho'ng yig'lay boshlaydi. Notiq hamma yig'layotganini ko'rib,yana bir bunyodkor kuchini namoyish etadi. To'satdan kutilmagan burilish yuz berdiki,hamma birdaniga kulib yuboradi. Shoh Shijo' ham xaloyiq ham Irshodni hurmat ehtirom bilan kuzatib qo'yadilar.

O'zbek xalqi orasida ular mashhur bo'lganlar. Ulardan biri Farg'onali notiq Qozi O'shiy bo'lgan. O'sha shahrida Qozi bo'lgani orasida juda katta obro'ga ega bo'lgan. U xalq haqida juda ko'p afsonalar,rivoyatlar kezib yuripdi. Navoiyning "Majolis-un nafois" asarida quyidagi ma'lumot berilgan.

Eronda Seiston xalqi qattiq qo'lligi bilan dunyoga dong taratgan edi. Hatto gadoga ham non bermagan. Qozi esa bu xalqning ko'ngil qulfini so'z kaliti bilan yumshataman deydi. U Seistonga borib,bir ikki kun yurib,ularning ruhiy ahvolini o'rganadi. Juma kuni majlisda katta nutq so'zlaydi.

Seiston xalqi topgan-tutganini minbar ostiga olib keldi. Lekin Qozi O'shiy notiqligi uchun haq olmasligini aytadi. Buni eshitgan xalq notiqni yanada e'zozlaydi. Notiq bu xalqning hasis emasligini aksincha sahiy ekanligini xalqning mehr xazinasini ochish uchun munosib kalit topa olishini his qiladi. Shu mutahasis notiqnlarni voizlar deb ataganlar. Ularning ba'zi matnlari chiroyli va yuksak saviyada bo'lgan. Nutq matnlarining aksariyat qismi nasriy she'r va she'riy shaklda bo'lgan.

Notiqlik psixologiyasi ham shu o'rinda juda muhim psixologik jarayon hisoblanadi. Men notiqlik psixologiyasida bir narsani misol qilib olishga qaror qildim. Bu bezovtalik psixologiyasi. Bezovtalik holati bizni ham bezovta qilmasidan doimo odam o'z-o'zini nazorat qilib turishiga to'g'ri keladi ya'niki, ish bilan har doim band bo'lishimizni taminlashimizga to'g'ri keladi.

Masalan: Buyuk olim Paster: "Ruhiiy xotirjamlik erishish ya'ni bezovtalikdan halos bo'lish uchun kutubxona va laboratoriyalarda muyassar bo'lish mumkin", degan edi. Nega endi aynan o'sha yerda? Chunki kutubxona va laboratoriyalarda kishilar ilmiy muammolar bilan shu darajada band bo'lishadiki, ularning bezovta bo'lish uchun umuman vaqtlari bo'lmaydi. Olimlarda asab buzilishlari deyarli ro'y bermaydi. Ularning bunga sarflaydigan vaqti yo'q.

Nega ish bilan band bo'lishdek oddiy narsa bezovtalikni "siqib" chiqarishga yordam beradi? Bu psixologiya fanining asosiy qonunlaridan biri ekanligi bilan izohlanadi. Mazkur qonun quyidagicha: har bir aqlli kishi, hatto kuchli aql sohibi ham bir vaqtning o'zida bir narsadan ortiq narsani o'ylay olmaydi. Siz bunga ishonmayapsiz-a? Mayli, tajriba o'tkazishga harakat qilamiz.

Faraz qilaylik: oromkursida joylashib o'tirib, ko'zlaringizni yumasiz va ayni bir paytning o'zida Ozodlik haykali hamda ertaga nima ish qilish kerakligi to'g'risida o'ylashga urinyapsiz.

**Angladingizmi, u yoki bu narsa to'g'risida birvarakayiga emas, navbati bilan o'ylash mumkin ekan, shunday emasmi? Xuddi shunday hol hissiyotlarimizda ham sodir bo'ladi. Biz bir paytning o'zida ko'tarinki ruhda yoki tushkun kayfiyatida bo'la olmaymiz. Xissiyotning bir turi ikkinchisini siqib chiqaradi. Aynan ana oddiy kashfiyot urush paytida armiyada xizmat qilgan yigitlarga mo'jizalar yaratishga qo'l kelgan.**

**Askarlar jang maydonidan asabi buzilib, daxshatga tushib telba ahvolda qaytishar ekan, harbiy shifokorlar ularga dori sifatida "Biror mashg'ulot bilan band bo'lish" ni buyurardilar. Daxshat va vahimaga limmo-lim to'lgan bu kishilarning har bir daqiqasi qandaydir mashg'ulot bilan band bo'lardi. Bu mashg'ulot ochiq havoda o'tqazilar edi. Ular baliq ovlash, ovga chiqish, koptok tepish, golf o'ynash, sur'atga tushirish, bog'bonlik hamda raqsga tushish kabi mashg'ulotlar bilan shug'ullanishardi. Shu tariqa bo'lib o'tgan daxshatli hodisalarning eslash uchun vaqtlari qolmas edi.**

**"Mehnat terapiyasi" - bu atama psixatriyada dori o'rniga ish buyurilganida qo'llaniladi. Qadimgi yunon shiforlari "Mehnat terapiyasi"ni eramizdan besh yuz yil muqaddam ishlatgan edilar.**

**Dilnoza Muhammadova O'zDJTU**

**Xalqaro jurnalistika fakuleti talabasi.**